

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAViy-AXLOQiy QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOiy O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQiy MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQiy JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROL.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

FACTORS OF FORMING INTELLECTUAL CULTURE IN STUDENTS

Jumaeva Shakhlo Suyunovna

Lecturer at Karshi State Technical University

Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences and Humanities

Abstract. This article analyzes the main factors of the formation of intellectual culture in students in the higher education system. Intellectual culture is considered as a complex structure that includes the abilities of a person to acquire knowledge, critical thinking, independent research and information processing. According to the results of the study, it was determined that pedagogical, psychological, socio-cultural and information-technological factors have a complex impact on the development of students' intellectual culture.

Keywords: intellectual culture, higher education, students, critical thinking, academic competence, cognitive development, educational environment, information literacy.

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Qarshi Davlat texnika universiteti o'qituvchisi

"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrası v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarda intellektual madaniyatni shakllantirishning asosiy omillari tahlil qilingan. Intellektual madaniyat shaxsning bilim olish, tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va axborotlarni qayta ishlash qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi murakkab tuzilma sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirishda pedagogik, psixologik, ijtimoiy-madaniy va axborot-texnologik omillar kompleks ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: intellektual madaniyat, oliy ta'lim, talabalar, tanqidiy fikrlash, akademik kompetensiya, kognitiv rivojlanish, ta'lim muhiti, axborot savodxonligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N21>

Kirish. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi intellektual salohiyatga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan va uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatiga molik mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Intellektual madaniyat shaxsning kognitiv faoliyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, bilimlarni tizimlashtirish va amaliy qo'llash ko'nikmalari hamda intellektual-ma'naviy qadriyatlar majmuini o'zida mujassamlashtirgan integral xususiyat hisoblanadi [1]. Oliy ta'lim muassasalari talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki intellektual madaniyatini ham shakllantirish bilan bog'liq muhim vazifalarni amalga oshiradi. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashtirish jarayonlari va fan-texnika yutuqlarining tez sur'atda o'zgarib borishi talabalarning intellektual madaniyat darajasiga yangicha talablar qo'ymoqda. Bu kontekstda talabalar shunchaki bilimlarni qabul qiluvchi obyekt emas, balki yangi bilimlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va yaratish qobiliyatiga ega subyekt sifatida namoyon bo'lishlari zarur [2].

Intellectual madaniyatning shakllanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik, psixologik, ijtimoiy va shaxsiy omillar ta'sirida amalga oshadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalar intellectual madaniyatini shakllantirishda ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini nazariy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlar tahlili, qiyosiy-taqqoslov va tizimli yondashuvlarga asoslanadi. Intellectual madaniyat konsepsiyasi psixologiya, pedagogika va falsafa fanlari doirasida keng tadqiq etilgan. L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi intellectual rivojlanishning ijtimoiy-madaniy kontekstda amalga oshishini ta'kidlaydi [3]. Bu yondashuv talabalarning intellectual madaniyati shakllanishida ta'lim muhitining, ijtimoiy muloqotning va madaniy vositalarning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda intellectual madaniyat tushunchasi keng ma'noda talqin qilinadi va u kognitiv, motivatsion, axloqiy-qadriyat komponentlarini o'z ichiga oladi [4]. O'zbek olimlarining tadqiqotlarida milliy ta'lim tizimida intellectual tarbiya masalalari alohida o'rganilgan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar bilan intellectual rivojlanishning uyg'unligiga e'tibor qaratiladi [5].

Xorijiy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari intellectual madaniyatning asosiy komponenti sifatida belgilanadi. P. Facione va boshqa tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashni tahlil, baholash, xulosalar chiqarish, talqin qilish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi kognitiv ko'nikmalar tizimi sifatida tavsiflaganlar [6]. Rossiyalik olimlar I.F. Isaev va E.N. Shiyanov intellectual madaniyatni pedagogik faoliyat kontekstida o'rganib, uning professional kompetentlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaganlar [7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning intellectual madaniyatini shakllantirishda bir necha asosiy omillar guruhi mavjud bo'lib, ular pedagogik-didaktik, psixologik-shaxsiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik omillarni qamrab oladi. Har bir omil o'ziga xos mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi va ular yagona tizimda kompleks natija beradi [8].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqotlar asosida talabalarning intellectual madaniyatini shakllantiruvchi omillarni to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchidan, pedagogik-didaktik omillar ta'lim jarayonining tashkili, o'qitish metodlari va o'quv dasturlarining mazmuni bilan bog'liq. Muammoli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim, tadqiqot faoliyatiga jalb etish talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi [9]. O'qituvchining o'zi intellectual madaniyatning namunasi bo'lishi zarur, chunki pedagogning shaxsiy namunasi talabalarda intellectual qadriyatlarni shakllantirishda kuchli omil hisoblanadi. Ikkinchidan, psixologik-shaxsiy omillar talabaning kognitiv qobiliyatlari, motivatsiyasi, o'z-o'ziga ishonchi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari bilan belgilanadi. Intellectual madaniyat shaxsning ichki ehtiyoji sifatida shakllanishi uchun bilimga qiziqish, yangilikka intilish, mustaqil izlanish motivatsiyasi zarur [1]. Metakognitiv ko'nikmalar, ya'ni o'z fikrlash jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyati intellectual madaniyatning muhim elementi hisoblanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy omillar ta'lim muhiti, akademik jamoaning intellectual muhiti, kutubxona resurslarining mavjudligi, ilmiy to'garaklar va seminarlarning faoliyati bilan bog'liq. Talabalar o'rtasida intellectual muloqot, fikr almashish, munozaralar va hamkorlikda ishlash muhiti intellectual madaniyatni rivojlantiruvchi qulay shart-sharoitlarni yaratadi [4]. Universitet madaniyatining o'zi, uning qadriyatlari va an'analari talabalarning intellectual

yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, axborot-texnologik omillar zamonaviy ta'limda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, onlayn kutubxonalar va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlari talabalarning axborot savodxonligini va mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantiradi [10]. Biroq, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi va sifatsiz manbalarning mavjudligi talabalarning axborotni tanqidiy baholash va ishonchli manbalarni ajrata olish ko'nikmalarini talab etadi. Ushbu omillarning samarali ta'siri uchun ular o'zaro bog'liq holda kompleks tarzda amalga oshirilishi zarur. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar axborot vositalari bilan qo'llab-quvvatlanishi, talabalarning shaxsiy motivatsiyasi ijtimoiy muhit tomonidan rag'batlantirilishi kerak. Intellectual madaniyat bir martalik natija emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayoni bo'lib, u talabalik yillarida asosiy yo'nalishlarini oladi va butun hayot davomida takomillashib boradi.

Intellectual madaniyat komponentlarining tizimli tahlili quyidagi tuzilmani ko'rsatadi. Kognitiv komponent bilimlarni o'zlashtirish chuqurligi, tizimlilik darajasi, interditsiplinar aloqalarni o'rnatish qobiliyati va intellectual operatsiyalarni bajarish mahoratini o'z ichiga oladi. Operatsional komponent tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, abstraksiyalash, modellashtirish kabi aqliy amallarni qo'llash ko'nikmalarini bildiradi. Motivatsion-qadriyat komponenti esa bilimga qiziqish, intellectual faoliyatga moyillik, vijdonlilik va mas'uliyat his-tuyg'ularini qamrab oladi [7]. Refleksiv komponent o'z bilim darajasini baholash, xato va kamchiliklarni tahlil qilish hamda o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini ifodalaydi. Ushbu komponentlarning muvozanatlashgan rivojlanishi talabaning yaxlit intellectual madaniyatini shakllantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

1-jadval. Intellectual madaniyat komponentlari va ularning ko'rsatkichlari

Komponent	Asosiy ko'rsatkichlar	Ta'sir etuvchi omillar
Kognitiv	Bilimlarning chuqurligi va kengligi, tizimlilik, interditsiplinar aloqalar	Pedagogik-didaktik, axborot-texnologik
Operatsional	Aqliy operatsiyalarni bajarish mahorati, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish	Pedagogik-didaktik, psixologik-shaxsiy
Motivatsion-qadriyat	Bilimga qiziqish, mustaqillik, mas'uliyat, intellectual ehtiyojlar	Psixologik-shaxsiy, ijtimoiy-madaniy
Refleksiv	O'z-o'zini baholash, metakognitiv ko'nikmalar, o'z-o'zini nazorat qilish	Psixologik-shaxsiy, pedagogik-didaktik

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, intellectual madaniyatning har bir komponenti bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi va bu omillar o'zaro bog'langan holda murakkab tizimni tashkil etadi. Kognitiv komponent asosan pedagogik jarayonning mazmuni va texnologiyalari orqali rivojlanadi, operatsional komponent esa amaliy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlar yechimida takomillashadi.

2-jadval. Intellectual madaniyatni shakllantirishda omillarning ta'sir darajasi

Omillar guruhi	Ta'sir yo'nalishi	Rivojlanish bosqichi
Pedagogik-didaktik	O'qitish metodlari, o'quv dasturlari, o'qituvchi kompetensiyasi	Barcha bosqichlarda yuqori ta'sir
Psixologik-shaxsiy	Motivatsiya, qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar	Boshlang'ich bosqichda hal qiluvchi
Ijtimoiy-madaniy	Ta'lim muhiti, akademik madaniyat, muloqot	O'rta va yuqori bosqichlarda ortadi
Axborot-texnologik	Raqamli resurslar, axborot savodxonligi, texnologik ko'nikmalar	Barcha bosqichlarda progressiv o'sish

Ikkinchi jadval shuni ko'rsatadiki, omillarning ta'siri talabaning ta'lim bosqichiga qarab o'zgaradi. Boshlang'ich bosqichda psixologik-shaxsiy omillar muhim rol o'ynasa, keyingi bosqichlarda ijtimoiy-madaniy va axborot-texnologik omillarning ahamiyati ortib boradi. Pedagogik-didaktik omillar esa barcha bosqichlarda doimiy va yuqori ta'sir ko'rsatuvchi baza hisoblanadi.

Ushbu omillarning samarali ta'siri uchun ular o'zaro bog'liq holda kompleks tarzda amalga oshirilishi zarur. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar axborot vositalari bilan qo'llab-quvvatlanishi, talabalarning shaxsiy motivatsiyasi ijtimoiy muhit tomonidan rag'batlantirilishi kerak. Intellektual madaniyat bir martalik natija emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayoni bo'lib, u talabalik yillarida asosiy yo'nalishlarini oladi va butun hayot davomida takomillashib boradi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, intellektual madaniyatning shakllanishi uch asosiy bosqichdan o'tadi: adaptatsiya bosqichi, faol o'zlashtirish bosqichi va ijodiy qo'llash bosqichi [8]. Har bir bosqichda muayyan omillar ustunlik qiladi va pedagogik ta'sirning yo'nalishlari o'zgaradi, bu esa individual yondashuvni talab etadi.

Intellektual madaniyatning shakllanish jarayonida universitetning akademik muhiti va ilmiy-tadqiqot faoliyatining tashkili alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ilmiy konferensiyalar, seminarlar va tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etishi ularning intellektual qobiliyatlarini amaliy ravishda sinab ko'rish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ilmiy rahbarlar bilan bevosita muloqot, tajribali tadqiqotchilarning ishlarini kuzatish va ulardan o'rganish talabalarning intellektual saviyasini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shuningdek, talabalar o'rtasida ilmiy munozaralar va bahs-munozaralar uyushtirish tanqidiy fikrlashni, mantiqiy asoslashni va o'z fikrlarini ilmiy dalillar bilan qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interditsiplinar yondashuv, ya'ni turli fanlar o'rtasidagi aloqalarni ko'rish va murakkab muammolarni kompleks yechish qobiliyati zamonaviy intellektual madaniyatning ajralmas qismidir. Bu esa faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, balki maxsus tashkil etilgan amaliy seminarlar, loyihali ishlarda hamkorlik va jamoaviy tadqiqotlar orqali shakllanadi.

Xulosa. Talabalarning intellektual madaniyatini shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu jarayon pedagogik-didaktik, psixologik-shaxsiy, ijtimoiy-madaniy va axborot-texnologik omillar majmuining kompleks ta'siri natijasida amalga oshadi. Pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ichki motivatsiyasini shakllantirish, metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish ehtiyojini uyg'otish psixologik jihatdan zarur. Universitet muhitida intellektual atmosfera yaratish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy axborot resurslarini ta'minlash intellektual madaniyat shakllanishining tashqi sharoitlarini belgilaydi. Kelajakda ushbu yo'nalishdagi amaliy tadqiqotlar, konkret pedagogik modellar va texnologiyalar ishlab chiqilishi talabalarning intellektual madaniyat darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуллаева Ш.А. Интеллектуальная культура студентов: сущность и структура // Научно-методический журнал «Педагогика». 2019. №3. С. 45-52.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. 176 б.

3. Выготский Л.С. Психология развития человека. Москва: Смысл, 2005. 1136 с.
4. Жўраев Н.Қ., Саидов А.С. Олий таълим тизимида талабаларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш. Тошкент: Фан, 2018. 224 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
6. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction // California Academic Press. 1990. P. 1-112.
7. Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогическая культура преподавателя высшей школы. Москва: Флинта, 2016. 160 с.
8. Ҳамидов Ҳ., Қосимова М. Талаба ёшларни интеллектуал тарбиялаш муаммолари // Узлуксиз таълим. 2020. №2. Б. 67-73.
9. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. Москва: Академия, 2012. 192 с.
10. Турғунов С.Т. Замонавий ахборот технологиялари ва таълим жараёни. Тошкент: ТДПУ, 2021. 288 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).